

PEDAGOGIK MULOQOTNI TASHKIL ETISH VA BOSQICHLARI.

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika yoʻnalishi 3-bosqich talabasi
Murodullayeva Shahlo Sharofiddin qizi
sharofkarimov999@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga fan, texnika, ilgʻor texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, oʻqitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy taʼminlashi, kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz taʼlim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan shaxs - fuqaroning tashkil topishi nazarda tutilgan.

Kalit soʻzlar: texnika, fan, muloqot, ijtimoiy rivojlanish, pedagog, shaxs, pedagogik texnologiya, psixologik muhit.

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные педагогические задачи на современном этапе, связанные с воспитанием, обучением и развитием личности на основе достижений науки, техники и передовых технологий. Освещаются цели, содержание, методы, средства и организационные формы педагогического процесса, научное обеспечение этих направлений. Особое внимание уделяется государственной политике в сфере подготовки кадров, предусматривающей формирование всесторонне развитой личности – гражданина через систему непрерывного образования

Ключевые слова: Техника, Наука, Социальное развитие, Педагог, Личность, Педагогическая технология, Психологическая среда.

Abstract: This article considers the current pedagogical tasks at the modern stage, which include the scientific provision of the goals, content, methods, means and organizational forms of education, training and development of the individual based on the use of achievements of science, technology, advanced technologies, and the formation of a comprehensively developed individual - citizen through a system of continuous education, as well as the state policy in the field of personnel training.

Keywords: technology, science, communication, social development, teacher, personality, pedagogical technology, psychological environment.

Pedagogik faoliyatda oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi oʻzaro munosabat va axborot almashinuvi oʻquv-tarbiyaviy jarayonning markaziy omillaridan biridir. Bunday muloqot “pedagogik muloqot” deb nomlanadi va u oʻqituvchining

tarbiyaviy, o'qituvchilik va shaxsiy ta'sir doirasida amalga oshiriladi. Pedagogik muloqot nafaqat bilim berish, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiylashuv va emotsional muhitni shakllantirish vositasi hamdir. Bu jarayon har doim ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar o'rtasidagi dinamik, faol, emotsional va ijtimoiy-psixologik munosabatlar tizimini ifodalaydi.

Muloqot –ta'lim oluvchi psixologik va ijtimoiy rivojining muhim omillaridan biri bo'lib, birgalikdagi faoliyatda umumiy natijalarga erishish, shaxslararo munosabatlarni yo'lga qo'yish va qo'llab-quvvatlash maqsadida ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro harakati tushuniladi¹.

Muloqot motivlari ta'lim oluvchining asosiy ehtiyojlari bilan tig'iz bog'langan bo'lib, ana shu asosdan kelib chiqib, muhim kategoriyalarini ko'rsatish mumkin: bilish, ishbilarmonlik, shaxsiy.

Psixologik lug'atlarda muloqot tushunchasiga ikki xil ta'rif beriladi:

1) muloqot- hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni;2)muloqot-belgilar tizimi orqali sub'ektlarning o'zaro ta'sirlahuvi. Psixologiyada muloqotni tahlil qilishda uning turli jihatlariga e'tibor qaratiladi: "kommunikatsiya" (axborot almashuv), "ijtimoiy pertsepsiya" (insonni insonni idrok etishi va tushunishi), "interaksiya" (birgalikdagi harakati). Amaliy muloqot mazkur tarkibiy qismlarning yig'indisi sifatida yuzaga chiqadi.

Pedagogik jarayonda muloqot faqat bir funksiya – axborot berish bilan chegaralanadi. Biroq muloqotning barcha tarkibiy qismlari – axborot almashuv va vazifalarni amalga oshirish, o'zaro munosabatlarni tashkil etish, bola shaxsini bilish va unga ta'sir ko'rsatishdan iborat.

Pedagogik muloqot deganda pedagog va tinglovchilar jamoasi o'rtasida o'zaro birgalikdagi harakatining mazmunan axborot ayirboshlashdan, o'quv-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va o'zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat tizimi, usullari va malakalari tushuniladi. Pedagog ushbu jarayonning tashabbuskori sifatida maydonga chiqadi va uni tashkil etadi hamda unga boshchilik qiladi.

A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan², quyidagi fikrlarni bildiradi: faol pedagogik muloqot – o'qituvchining, jamoaning ta'lim-tarbiya jarayonida tinglovchilarni bilish va o'rganish kaliti va o'quv faoliyatining ijodiy xarakteri, tinglovchi shaxsining shakllanishi uchun yaxshi sharoit yaratadigan, ta'lim-tarbiyada maqbul emotsional muhitni ta'minlovchi, ruhiy psixologik to'siqlarning paydo bo'lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida

¹ Mavlonova R.A.,Abduraximova D.Pedagogik mahorat.O'quv qo'llanmaT.:Fan va texnologiya 2012-yil.

² A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini

ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib boshqarishni ta'minlaydigan va o'quv tarbiyaviy jarayonda o'qituvchini mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir.

Pedagogik muloqotni samarali tashkil etish uchun uni izchil bosqichlarda amalga oshirish zarur: motivatsion-tashkiliy, axborot-almashinish, interaktiv o'zaro ta'sir, reflektiv baholash kabi bosqichlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ochiqlik, o'zaro ishonch, hurmat, tinglay olish, empatiya va pedagogik takt asosida qurilishi lozim. Har bir bosqichda kommunikativ kompetensiyalar, didaktik mahorat va psixologik tayyorgarlik muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, inkluziv ta'lim yondashuvlari va interaktiv metodlarning jadal rivojlanishi sharoitida pedagogik muloqotning mazmuni va shakllari ham izchil takomillashib bormoqda. Ayniqsa, ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlari, individual ehtiyojlari va ijtimoiy-madaniy omillarni inobatga olgan holda, shaxsga yo'naltirilgan, reflektiv va ko'pkanalli kommunikatsiya uslublarining qo'llanishi pedagogik muloqotni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik muloqot bu — nafaqat axborot uzatish vositasi, balki tarbiyaviy, psixologik va ijtimoiy jarayonlarni uyg'unlashtiruvchi, o'qituvchi va o'quvchini o'zaro subyektiv munosabatga olib kiruvchi strategik pedagogik faoliyatdir. Shu boisdan, uning samaradorligini oshirish har bir pedagogning kasbiy kompetensiyasi, madaniyati va innovatsion yondashuvlari bilan chambarchas bog'liqdir. Kelajakda raqamli ta'lim muhitida pedagogik muloqotni interaktiv, moslashuvchan va gumanistik tamoyillar asosida yanada takomillashtirish zarurati dolzarb bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017yil.
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son, 70-modda.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi - inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston", 2017yil.
4. Mavlonova R.A., Abduraximova D. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma T.: Fan va texnologiya 2012-yil.
5. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Cho'lpon, 2005
6. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T. O'qituvchi. 1994 y.